

## OILA – JAMIYATNING ASOSIY BO’G’INI

**Mirzarayimova Zebiniso Mansurbek qizi**

Andijon davlat universiteti

MG’MAHT yo’nalishi 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7740938>

Annotatsiya: Maqolada oilaning jamiyatda tutgan o’rni, uning mustahkamligi va unga qaratilayotgan e’tibor aks etgan. Shuningdek, oilada kamol topayotgan har bir yosh avlod jamiyatimizni yuksaltirishi uchun, albatta, oilada go’zal tarbiya topmog’i darkor.

Kalit so’zlar: Oila, jamiyat, ota-ona, farzand, tarbiya, ma’naviy muhit.

Boy ilmiy-madaniy merosimiz, qadimiy urf-odat hamda an’analarimizdan ayonki, har qanday zamon va makonda ham oila biz uchun muqaddas qadriyat sanalgan. Binobarin, tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy, ruhiy-axloqiy, iqtisodiy-huquqiy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik hisoblanmish oila qanchalik mustahkam bo’lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror taraqqiy etishini ajdodlarimiz juda yaxshi anglashgan.<sup>1</sup>

Yuqoridagi so’zlar bejiz aytilmagan, chunki oilaga bo’lgan e’tibor qadim zamonlardan beri kuchli va e’tiborga molik masala bo’lgan. Oila jamiyatning asosiy bo’g’inidir.

Har qanday jamiyatning mustahkamligi, rivoji oilaga bog’liq. Chunki, jamiyatda bo’ladigan ijtimoiy munosabatlarning dastlabki elementi oilada vujudga keladi va shakllanadi. Oiladagi kattalarning bir-biri, boshqalar bilan atrof-muhit, mol-mulkka bo’lgan munosabati yoshlarning shu masalalarga munosabatini shakllanishi uchun o’rnak bo’ladi. Oiladagi tarbiyaning boshqa tarbiyalardan farqi, afzalligi tarbiya u yerda faqat o’rgatish, o’qitish, ta’kidlash bilangina emas, barcha narsalarda katta yoshdagilarni kichik yoshlar uchun o’rnak ko’rsatishi orqali olib boriladi.

Asosiy qonunimizda ham oilaga alohida e’tibor qaratilgan. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 63-moddasida: “Oila jamiyatning asosiy bo’g’inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo’lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslanadi” deyilgan.<sup>2</sup>

Jamiyatimizda keng ko’lamli islohotlar turli sohalarda amalga oshirilmoqda, bu nimaga, albatta, davlatimizni, jamiyatimizni rivojlantirish uchun. Turli sohalarga qaratilayotgan e’tibor, shuningdek, oilaga ham qaratilmoqda. Chunki oilada bizning kelajaklarimiz, yosh avlodlar kamol topmoqdalar. Oilaning bejizga

<sup>1</sup> “Xalq so’zi” gazetasi

<sup>2</sup> O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi., T.: “O’zbekiston”-2019.



jamiyatimizning asosiy bo'g'ini ekanligi ta'kidlanmaydi. Jamiyatdagi har bir qonun, faoliyat, fuqarolar oilada ham aks etadi. Ya'ni oila kichik bir jamiyat. U oila boshlig'i, oila a'zolaridan tashkil topadi. Qachonki oila tinch, oila boy, oila mustahkam bo'lsagina, jamiyat tinch, jamiyat mustahkam, jamiyatda yuksalish bo'ladi. Oilani mustahkamlash orqali biz jamiyatimiz tinchligiga, shu bilan bir qatorda davlatimizning iqtisodiy-siyosiy o'sishiga erishishimiz mumkin. Shu maqsadda davlatimiz oila biznesiga alohida e'tibor ham qaratib kelmoqda. Bunda oila a'zolari ish bilan ta'minlanadi, bu orqali jamiyatda ishsizlik soni kamayadi. Oilaga daromad kirish boshlanadi, bu orqali jamiyatda kambag'allik soni kamayadi. Bu har taraflama o'ylangan iqtisodiy harakat hisoblanadi.

Oilalarda yoshlar tarbiyasining o'rnini va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish. Ota-ona farzand dunyoga keltirar ekan, uning tarbiyasi, bilim olishiga, yaxshi sharoitda ulg'ayishiga mas'uldirlar. Farzand tarbiyasida oilaning o'rnini beqiyosdir. Bola ulg'ayib, jamiyatga qo'shilguniga qadar oilada kamol topadi. Ota-onasini o'zlariga ideal shaxs sifatida ko'radilar va ulardan yoki bobobuvilardan pand-nasihatlarni olib ulg'ayadilar. Bolani jamiyatga yetuk shaxs sifatida ulg'aytirish uchun ota-onaning o'rnini katta bo'lgani uchun ularni oilaga tarbiyalash kurslari faoliyat olib bormoqdalar. Bolaning bo'sh vaqtini ta'minlash, mazmunli o'tkazish har taraflama ota-onadan katta mas'uliyat talab qiladi. Chunki yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqsh kabidir. U oilasida nimani o'rgansa, nimani ko'rsa, ertaga jamiyatga ham shuni olib chiqadi. Bolaning yoshlikdan iqtidori, iste'dodini topib, uni shu yo'nalishga olib kirish va shu sohada mukammal bilim berib boorish kerak. Darsdan tashqari turli sport to'garaklariga berish, bolaning jismonan sog'lom bo'lishini ta'minlaydi. Ham aqliy, ham jismonan sog'lom farzandlar jamiyatimizning poydevor, tayanchlaridir,

Oilada jinoyatchilikni oldini olish. Oila qanchalik tinch va totuv bo'lsa, shundagina davlat tinch va barqaror ravnaq topadi. Shu jihatdan, oila qo'rg'onining mustahkamligi va unda ma'naviy jihatlarning shakllanishi hamda amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Oilada ko'pgina masalalarni hal qilish, turli zararli illatlarga barham berish, ularni oldini olish mumkin. Shu masalalarda mahalla faxriylari, mahalla posbonlari bilan suhbatlar o'tkazilib boriladi, endi shularni ijrosini ta'minlash esa oiladagi har bir a'zoning burchidir. Chunki ta'kidlab o'tkanimizdek, oila kichik bir davlat va biz uni asrashimiz kerak. Tinchlik esa ulug' ne'mat.

Oilada ma'naviy muhit. Ota kitob o'qisa, ona kitob o'qisa, albatta, uni ko'rgan bola ham kitob o'qiydi. Kitob o'qigan boladan esa yomonlik chiqmaydi. Keng



dunyoqarashli, bilimli, idrokli yoshlar esa jamiyatimizning faxridir. Bu sohada ham keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Jamoat joylarida kutubxonalar tashkil etilmoqda, "Yosh kitobxon" tanlovlari o'tkazilmoqda.

Yurtimizda oilani mustahkamlash borasidagi davlat siyosatining afzalligi shundaki, davlat oilaning o'ziga xos suveren tuzilma sifatida qadrlaydi, uning ichki ishlariga aralshmaydi, lekin u yoki bu sabablarga ko'ra, oilada ba'zi qiyinchiliklar paydo bo'lgan bo'sa, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, mahalla qo'mitalari, unda faoliyat yuritayotgan jamoatchilik komissiyalariga murojaat qilish orqali fuqarolar o'z manfaatlarini himoya qilishlari va davlatning madadiga erishishlari mumkin.<sup>3</sup>

Muxtasar qilib aytganda, oila kichik bir jamiyat. Jamiyatimizni qancha yuksaltirmoqchi bo'lsak, oilaga bo'lgan e'tiborimizni shuncha oshirishimiz kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Xalq so'zi" gazetasi
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.2019.
3. V.Karimova."Oila psixologiyasi".Darslik.2007.

---

<sup>3</sup> V.Karimova., Oila psixologiyasi(darslik).T.: -2007.140-B